

**Ne'matjonova Sug'diyona Nurillo qizi**

2006-yil 11-martda Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanida tavallud topgan. Yangiqo'rg'on tumani XTB ga qarashli 42-sonli umumiy o'rta ta'lif muktabining 1-sinfiga qabul qilingan. Mazkur muktabni Oltin medal bilan tamomlab, Andijon davlat universiteti Matematika va mexanika fakulteti Amaliy matematika yo'nalishiga talabalikka tavsija etilgan. Uning she'r va hikoyalari matbuotda muntazam e'lon qilinadi. Sug'dyonaning „Charaqlagan yulduzlar”, „Tomchida quyosh aksi”, „Baxt uchun yaraldik”, „Ulug'lar so'zi” nomli kitoblari kutubxonalaridan joy olgan. Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlardagi „Izhori dil” tabriklar loyihasi asoschisi sifatida faoliyat yuritadi. Uning ijodiga mansub she'rlar O'zbek xonandalari ijrosida ajoyib taronalarga aylangan.

**Andijon davlat universiteti uchun**

Mustaqil Vatanda topib erkini ,

Ma'rifat ularshgan shu dargohimiz.

Ojizlar chiqmagan senda, berkinib,

Gullab-yashnayvergin oliygohimiz.

Otashli zamonda olamga kelding,

Jadidlar orzusin ro'yobi bo'lding ,

Ochilmas tilsimlar javobi bo'lding.

Gullab-yashnayvergin oliygohimiz.

Yangi O'zbekiston faxriga aylan,

Yurtimiz eng ilg'or shahriga aylan,

Andijonim buyuk qadamga shaylan,

Gullab-yashnayvergin oliygohimiz.

Buloqlar ko'z ochar – o'zing najoti,

Ko'zlangan manzilga uchgan qanoti ,

Boburlar uyg'onar o'shal zahoti ,

Gullab-yashnayvergin oliygohimiz.

Buyuk kelajakka tutashgan yo'llar,

Andijon bag'rida birlashgan qo'llar,

## **“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

Madhingni avlodlar kuylagay yillar  
Gullab-yashnayvergin oliyohimiz.

Bunyodkor yoshlarga berasan imkon,  
Ustozlar mehridan yuksaldik, ishon,  
Hattoki jahonda topding sharaf-shon.  
Gullab-yashnayvergin oliyohimiz.

Namoyon bo'lasan ma'rifat desam,  
Har jabha sirlari senda mujassam,  
Munosib bo'larmiz, so'zimiz qasam  
Gullab-yashnayvergin oliyohimiz.  
Ustoz-u shogirdda yangi tashabbus  
Mevasi matonat bizning bog'imiz,  
Najotkor ovoz-la sukunatni buz ,  
Gullab-yashnayvergin oliyohimiz.

### **Ona tilimizga bag'ishlanadi**

Sendan o'zga buyuklikni bilmayman men  
Ne mo'jiza har millatning joni o'zing  
Senda tarix va kelajak muallaq, teng  
Yangi hayot tuhfa etar har bir so'zing

Senda jammiz, sening ila bir butunmiz  
Birlashgan bu jonimizni sochmasinlar  
Til bor ekan,o'zgacha bir dunyo-dunmiz  
Farzandlaring xizmatingdan qochmasinlar

Ona tilim , vujudingda sha'nimiz bor  
O'zbegimning sendir ko'rk-u tarovati  
Har onaning alla aytgan tunlar bedor  
Har otaning senda yurak harorati

Goho qadring bilolmadik yoshlар shuda  
Navoiy ham taqdiringni o'ylab horg'in

G'aflat bosib milliy g'urur kech uyquda  
Boburlaring gullatardi tilning bog'in

Lekin ishon , sen o'kinma ona tilim  
Ko'p yashaysan ona xalqim ardog'ida  
Bejiz seni atamadik „, jon-u dilim"  
Asragaymiz inon ko'zlar qarog'ida

Chet tillarin o'rganmoqlik joiz damda  
O'z tilini unutmoqlik falokatdir  
Siz va bizdek avlodlari bor Vatanda  
Eng oliv burch—o'z tiliga sadoqatdir !

### **Bayramingiz muborak, ustozlar !**

Muallim qadrini so'rang har kimdan  
Ilmni anglagan zotki e'zozlar  
Olimdan, fozildan tinglang hakimdan  
Ma'rifat yog'dusi erur ustozlar

Sizlarda shijoat, sizdadir shiddat  
Bir onlik ta'limga yillarcha mehnat  
Qoshingizda ta'zim aylaymiz albat  
Ma'rifat yog'dusi erur ustozlar

Hatto nur taralar sochda oqidan  
Shafqatni topasiz ko'z qarog'idan  
Jasorat so'nmaydi hech nigohidan  
Ma'rifat yog'dusi erur ustozlar

Nafas olarmisiz xurriyat, erksiz  
Aslida bilimsiz shuu'ri berksiz  
Har jabhada bugun imkonlar cheksiz  
Ma'rifat yog'dusi erur ustozlar

Munavvar yuzingiz oydayin yorug'  
Izingiz mo'tabar, so'zingiz ulug'

Qulq sol pandiga odimi qutlug'  
Ma'rifat yog'dusi erur ustozlar

Temurday, Boburday buyuk bobolar  
Ajdodlar ustozin suydi, daholar  
Eng yuksak suratda bergen baholar  
Ma'rifat yog'dusi erur ustozlar

### **Yuragingda Vatan bo'lsin**

Mardlar bo'lsin sha'ni buyuk el-ulusda  
Xalqim bolam desa unga jon payvasta  
Xizmatiga shaylan bo'lib kamarbasta  
Qayda bo'lsang yuragingda Vatan bo'lsin

Ziyo bergen oliy ilm-u urfon uchun  
Ajdodlaring doston erur jahon uchun  
Olim bo'lgin tahsin aytib imkon uchun  
Qayda bo'lsang yuragingda Vatan bo'lsin

Birlashaylik toki olam chaman bo'lsin  
Maqsadlaring misli uchqur saman bo'lsin  
Qadam yetgan yerlaringa shoh bo'l mayli  
Qayda bo'lsang yuragingda Vatan bo'lsin

Milliy g'urur, atlas, shoyi, do'pping asra  
Bayrog'imiz baland tursin boshing uzra  
Adashmagin ma'rifatli yo'ldan sira  
Qayda bo'lsang yuragingda Vatan bo'lsin

Har jabhada ilg'orisan, zo'ri o'zing  
Ona yurtin sotganlarning sho'ri o'zing  
Shoqollarga bo'y bermagan bo'ri o'zing  
Qayda bo'lsang yuragingda Vatan bo'lsin

## **“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

Jon elimning mard o'g'loni, suluv qizi  
Temur, Shiroq, To'marisning bosar izi  
Jaloliddin, Navoiylar aytar so'zi  
Qayda bo'lsang yuragingda Vatan bo'lsin

### **Millat uchun**

Yurtimiz yoshlardan umidvor  
Zeroki bizlardan umid bor  
Ey, shaxdam odimli yashavor  
Toki sen millat deb o'qiysan  
Asrlar o'tsa ham boqiysan

Pok vijdon, oriyat bizlarda  
Kelajak hurriyat bizlarda  
Haqsevar surriyod bizlar-da  
Toki sen millat deb o'qiysan  
Asrlar o'tsa ham boqiysan

Qorong'u illatlar yot bo'lsin  
Yurakda shu kalom yod bo'lsin  
Ajdodlar ruhlari shod bo'lsin  
Toki sen millat deb o'qiysan

### **Asrlar o'tsa ham boqiysan**

Maqsadni tanlagin bugundan  
Ey avlod burchingni olgin tan  
Ishonar bizlarga shu Vatan  
Toki sen millat deb o'qiysan  
Asrlar o'tsa ham boqiysan

Ko'z chaqnar dildagi xitobdan  
Boshingni ko'tarma kitobdan  
Zulmatni izlama oftobdan  
Toki sen millat deb o'qiysan  
Asrlar o'tsa ham boqiysan

Tillorang shu zamin onamiz

Ne uchun onadan tonamiz  
Kel do'stim bir porlab yonamiz  
Toki sen millat deb o'qiysan  
Asrlar o'tsa ham boqiysan

Qad rostlab elimga ardog'ing  
Samoga ko'tarsin bayrog'ing  
Hayotdan o'chmasin chirog'ing  
Toki sen millat deb o'qiysan  
Asrlar o'tsa ham boqiysan

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OTA-ONALARING O'ZARO HAMKORLIGINING MAZMUNI**

**Qodirova Sitora Dilyorbek qizi**

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi:*

**Annotatsiya:** *O'qituvchilar va ota-onalar, umuman olganda, uy va MTM, ota-onalar va o'qituvchi o'rtaida ijobiliy, qo'llab-quvvatlovchi va ochiq munosabatlar zarur. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ota-onalar ishtiroki va ota-onalar va o'qituvchilarning muvaffaqiyatli hamkorligi o'quvchilar uchun ta'limga natijalarini yaxshilaydi. Maqolada ham ta'limga tarbiya jarayonida MTM bilan ota-onalar hamkorligidagi faoliyat va uning natijalari tahlil qilinadi.*

**Kalit so`zlar:** *MTM, Mahalla , ota-onalar, ta'limga tarbiya*

**Abstract:** *teachers and parents generally emphasize the need for a positive, supportive and open relationship between home and school, parent and teacher. In addition, studies have shown that parental involvement and successful collaboration of parents and teachers improve educational outcomes for students. The article also analyzes the activities of parent-child cooperation with MTM and its results in the educational process.*

**Keywords:** *MTM, neighborhood, parent, education,*

**Аннотация:** *учителя и родители обычно подчеркивают необходимость позитивных, поддерживающих и открытых отношений между домом и школой, родителями и учителями. Кроме того, исследования показали, что участие родителей и успешное сотрудничество родителей и учителей улучшают результаты обучения учащихся. В статье также*